

**TIBBIYOT SOHASIDA KONFLIKTLARNI OLDINI OLISHGA
QARATILGAN STRATEGIYALAR**

*Olimjonova Ziynat Bobamurod qizi
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi o'qituvchisi
Mahmudov Rustam Baxtiyor o'g'li
Xodjayeva Madinaxon Kamoliddin qizi
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talablari*

Annotasiya: Mazkur maqolada konflikt haqida tushuncha va uning kelib chiqishi, hamda jamiyatda konfliktlarni qanday oldini olish haqida strategiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: konfliktologiya, konflikt, konfliktogen, konfliktogen turlari, jamoadagi konfliktni boshqarish, ijtimoiy nizolarning ijobiy va salbiy oqibatlari, ijtimoiy konfliktning tipologiyasi

Konfliktologiya - ijtimoiy konfliktlarning sabablari, shakllari, rivojlanishi hamda ularni hal qilish va oldini olish haqidagi fandir. Konflikt – bu ikki, yoki undan ko'p tomonlarning o'z maqsadlariga yetish yo'lidagi turli manfaatli to'qnashuvidir. Konflikt – bu tabiiy holat. Konflikt har doim ham buzg'unchilik yoki zo'ravonlik emas. Konfliktni to'g'ri hal etilsa, u yaratuvchanlik qudratiga ega bo'ladi. Konflikt tomonlar munosabatlarini yanada mustahamlashi, ularni yangi mazmunda qayta qurishi mumkin. Konflikt faqat bir tomonidan iborat bo'la olmaydi. Konfliktda, uning qanchalik murakkab bo'lishiga qaramay, har vaqt ikki tomon – buzg'unchilik va yaratuvchanlik mavjud bo'ladi. Xitoyliklar fikricha, konflikt ikki asosiy tushunga: vayron etish va yaratuvchanlikning yaxlitligi, yagonaligidan iboratdir. Konfliktga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, amallar, yoki harakatsizlik konfliktogen deb ataladi. Konfliktogenlarning ko'pchiliginini kuyidagi turlarga ajratish mumkin: - o'zini ustun qo'yish; - aggressiyaga moyillik; - egoizm.

Nizolarning oldini olish strategiyasi faoliyat tizimini, jamoat sub'ektlari o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlarning o'ziga xos jarayonini boshqarish bosqichlari va usullari to'plamini o'z ichiga oladi. Nizolarning qisman va to'liq oldini olish, erta ogohlantirish va oldindan hal qilish bosqichlari farqlanadi. Qisman oldini olish ushbu nizoning sabablaridan birining ta'sirini blokirovka qilish va uning qarama-qarshi tomonlarning manfaatlariga salbiy ta'sirini cheklash sharti bilan mumkin bo'ladi. To'liq oldini olish strategiyasi to'qnashuvni belgilovchi omillarning butun majmuasining ta'sirini zararsizlantirishni o'z ichiga oladi, bu esa sub'ektlarning o'zaro munosabatlarini o'zaro manfaatlarni amalga oshirish uchun ularning hamkorligi yo'nalishiga yo'naltirishga imkon beradi.

Jamoadagi konfliktni boshqarish tartiblari:

1. Konfliktni vujudga kelganini, uning mavjudligi tan olish va uni o'rganish.
2. Konfliktga tortilgan hodimlar, bevosita konflikt ishtirokchilari hamda konfliktga aloqador blmagan, ammo mana shu jamoaning barcha hodimlarining ziddiyat to'g'risidagi holis fikr-mulohazalarini o'rganish.
3. Konfliktning asl mazmunini, nima sababdan kelib chiqqanligini aniqlash.
4. Konflikt yechimini rejalashtirish. Konflikt yechimini topish bo'yicha turli alternativ usullar, yo'llar va ssenariylarni ishlab chiqish.
5. Konflikt yechimi jarayoniga barcha hodimlarni jalb qilishga harakat qilish.
6. Butun jamoadagi diqqatni konfliktning mazmunini, muammoning mohiyatini anglashga qaratish va yo'naltirish.
7. Konflikt yechimi doirasida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash va konflikt vaziyatni hamkorlikda qabul qilingan yechimga olib kelish.
8. Konflikt vaziyat bo'yicha belgilangan qaror va xulosalarning o'z vaqtida joriy etilishini ta'minlash.

Nizolarning ning oldini olish usul va vositalarning kompleks tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Ular vaziyatni Real baholash, ijtimoiy jarayonda ishtirok etadigan barcha sub'ektlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishga ustuvor ahamiyat berish va bag'rikenglik tamoyilini amalga oshirish imkoniyatini hisobga olinsa samarali bo'ladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidov A. I., Eshquvvatov T. E., Isnonqulova N.I. Pedagogik konfliktologiya fanidan ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2015. – 166 bet.
2. Konfliktologiya asoslari: O'quv qo'llanma/ R.Z.Jumayev, U.A.Ubaydullayev, B.A.Xujanov. - Toshkent: Akademiya, 2000. - 208 b.
3. Akramovich, A. A. (2023). KASALLIKLARNI DAVOLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVCNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 17(5), 33-35.
4. Xudoynazarovich, E. A., & Ulug'bekovich, X. O. (2023). BEMORLARDAGI JARROHLIK OPERATSIYASIDAN OLDINGI VA KEYINGI PSIXOEMOTSİONAL HOLATLAR. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(1), 89-92.
5. Olimjonova Zynat Bobomurod qizi , Yo'ldoshev Iskandar Abdivali o'g'li, Majidova Sevara Rasuljon qizi. (2023). ONKOLOGIK KASALLIK BILAN KASALLANGAN BEMORLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH. IQRO JURNALI, 2(1), 85–88.